

ILMIY HAMKORLIKDA YARATILGAN KITOB

Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasining Nizomiy Ganjaviy nomidagi adabiyot instituti bo'lim mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Almaz Ulviy va Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Umid Bekmuhammadlar hammuallifligida yangi kitob nashr etildi.

Urganch shahridagi "Ogahiy" nashriyotida chop etilgan kitob "Maqsud Shayxzoda va uning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi" deya nomlanadi. Asarda ozarbayjon va o'zbek xalqlari orasidagi do'stona aloqalar, Maqsud Shayxzodaning qardosh Ozarbayjon diyoridan O'zbekistonga kelishi tafsilotlari, ijod va ilm olami bo'yicha yaratgan asarlari, shu jumladan "Jaloliddin Manguberdi" dramasini yaratishga undagan sabablar, voqealar va dramaning yozilish jarayoni haqida hikoya qilinadi.

Dramaning sahnalashtirilishi, bu borada yetuk aktyorlar va san'atshunoslarning e'tiroflari, 1950-yillardagi qatag'on siyosati davrida Shayxzodaning qamalishi va ozodlikka chiqqach yaratgan badiiy va ilmiy asarlari bo'yicha ham kitobda mulohaza yuritilgan.

Hammualliflar tomonidan yaratilgan kitobda O'zbekiston Qahramonlari Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov, akademik Naim Karimov, Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, filologiya fanlari doktori Xalil Rizo, yosh, iste'dodli yozuvchi Javlon Jovliyev va boshqalarning Maqsud Shayxzoda ijodiga bergan yuksak baholari ham keltirib o'tilgan.

Kitob Xorazm viloyat ma'naviyat va ma'rifat kengashi "Jaloliddin Manguberdi" fondi homiyligida nashr etilgan.

